

**AMALIY DARS JARAYONIDA AMALGA OSHIRILADIGAN
TA'LIMNING PEDAGOG KOMPETENSIYASI ASOSIDA, TIZIMLI,
SUBYEKTIV VA FUNKSIONAL YONDASHUVLARI**

Gulzoda Ernazarovna Umarova

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Libos dizayni kafedrası katta o'qituvchisi

gulzodaodiljonrayhona@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada, dizayn ta'limini rivojlantirishda amaliy dars jarayonida amalga oshiriladigan ta'limning pedagog kompetensiyasi asosida, tizimli, subyektiv va funksional yondashuvlari, talabalarning faoliyatiga kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish tizimidagi o'rni muallif tomonidan tahlil olib borilgan.

***Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, dizayn ob'ekti, dizayn, ta'lim.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается развитие дизайна образования в контексте практических занятий, осуществляемых на основе педагогической компетенции. Анализируются системный, субъективный и функциональный подходы, а также роль подготовки студентов в системе профессиональной подготовки.

***Ключевые слова:** инновационное образование, профессиональная подготовка, объект дизайна, дизайн, образование.*

ABSTRACT

The article examines the development of educational design in the context of practical activities carried out based on pedagogical competence. It analyzes systemic, subjective, and functional approaches, as well as the role of student training in the system of professional education.

***Keywords:** innovative education, professional training, design object, design, education.*

KIRISH

Amaliy dars jarayonida amalga oshiriladigan ta'limning pedagog kompetensiyasi asosida to'g'ri, tizimli, subyektiv va funksional tashkillashtirilishi, talabaning ta'limga yondashuvni mutlaqo ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Sababi pedagogning kasbiy kompetensiyasi talabaning ta'lim olish sifatiga o'zaro ta'siri kuchlidir.

Dizayn sohasi ta'limida pedagog yangi, zamonaviy texnikalar asosida dizayn ta'limini tashkil etuvchi mutaxassislar orqali jamiyatda dizayn faoliyati ijtimoiy-madaniy sharoitlari asosidada o'qitish va ta'lim jarayonida yangi loyiha madaniyatini shakllantirishi ta'lim sohasida ijobiy o'zgarishlar asosidir.

Dizayner-o'qituvchi - bu tashkilotchi, dizayn madaniyatini shakllantirish orqali, dizaynda ta'lim va tarbiya uzviyligi ta'limning asosi va ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda tarbiyalash jarayoni muximligini o'z faoliyatida ko'rsatib beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kasbiy-pedagogik (amaliy dars boshqaruvi) amaliy dars jarayonida amalga oshiriladigan ta'limning pedagog kompetentsiyasi asosida to'g'ri, tizimli, subyektiv va funktsional tashkillashtirilishi o'ziga xos xususiyati - o'qituvchi shaxsining kasbiy faoliyatga yuqori urg'u berilishi, o'z kasbiy faoliyatining quroli sifatida ishlaydi. Talabanning dizayn yo'nalishida - ta'lim va tarbiya, yangicha to'g'ri fikrlash, dizaynning yangi usullarini talabalarga etkazish, turli mavzu shakllari va muhitlarini to'g'ri ketma-ket joylashtirilishi to'g'ridan to'g'ri pedagogga bog'liq.

“Dizayn ta'limi. Tuzilishi. Tarkibi va amalga oshirish usullari” zamonaviy mutaxassis uchun yangilangan ijtimoiy-madaniy talablarni tahlil qilish asosida yangi amaliy dars shakllarini ishlab chiqilishi, tanlangan sohada professional tayyorlashning kontseptual asoslarining negizidir. Dizayn ta'limining tuzilishi, mazmuni va amalga oshirish usullari; zamonaviy dizayn ta'limi amaliyotini rivojlantirish yo'llarini aniqlash, o'rganish ob'ekti tizimning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni xisoblanadi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda ta'limdagi muvaffaqiyatli rivojlanish, yaratilgan muhitga rivojlanish ko'fsenti o'zgarishiga ta'sir etadi. Ushbu yondashuv inson muhitining shakllanishi zamonaviylikni aniqlash imkonini beradi.

Tsivilizatsiya dizayn madaniyati rivojida davri inson muhitini yangi bosqichini yaratishi va jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy rivojlanish jarayonlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi, Integratsiya tamoyili imkoniyati darajasini belgilaydi va dizayn muammolarini hal qilish uchun fanlararo aloqalarni o'rnatish, kasbiy vazifalar, shuningdek, bilimlar birligiga erishish imkoniyati, uni ifodalashning barcha shakllari va turlariga tasir etadi.

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'hshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga

erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Kompetensiyaning har bir turi ko'nikmalar, bilimlar, ko'nikmalar to'plamini o'z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo'ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko'rsatkichlariga e'tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin. Kompetentlik qanday shakllanadi? O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi.

Xulosa shuki, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. U oliy ta'lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmash kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko'nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlarini hamdir.

REFERENCES

1. Ernazarovna, U. G. (2022). The Role of " Design-thinking" in the formation of artistic and design activities of future specialists. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 103-105.
2. Ernazarovna, U. G. (2022). The Formation of the design term and history of development. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 96-102.
3. Qizi, Y. S. M., & Muratovna, X. U. (2021). LIBOS DIZAYNI TA'LIMIDA EKOLOGIK-INNOVATSION MATOLARNING AHAMIYATI VA ZAMONAVIY MODA-KOSTYUM DIZAYN SANOATIGA TADBIQ ETISHNING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 240-251.
4. Tursunpo'latova, D. R. Q. (2021). KIYIMDAGI " NEW LOOK" USLUBI, KELIB CHIQISH TARIXI VA ZAMONAVIY MODA YO'NALISHIDA AKS ETISHI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 752-762.
5. Yunusxodjaeva, S. A. (2019). Yosh rassomni o'qitishda samarali usullardan foydalanish. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 1(4).

6. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, Gulmira Rifovna Tojiboeva
7. Zaripova, M.A. (2020). MODEL YARATISHNING ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARIDA ISHTIROKI. PEREKRYOSTOK KULTURASI, 2(4).
8. Jabborova, O. M., & Umarova, Z. A. (2021). "TARBIYA" FANINI KLASTER USULIDA O'QITISHDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH.
9. Komilova X. X., Vohidova U. A. "Loyihalash", OO'Yu uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya.
10. Umarova, G., & Rashidov, A. (2024). IJODIY FAOLIYAT UCHUN, O 'QUV MASHG 'ULOTLARINING O 'ZIGA XOS USLUBIY CHIZMASIGA EGALIGI, IJODKORLARNING EKSPERIMENTAL ISHIGA KATALIZATOR BO 'LIB XIZMAT QILISHI OMILLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 147-147.
11. http://vtk34.narod.ru/petruk_osnovimodelirodejdi/book/book12.htm
12. https://studref.com/638080/kulturologiya/ispolzovanie_tsveta_kollektsi